

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Tursunov, A.Ibragimov, U.Ishimov	
Farg'ona vodiysida o'sadigan <i>cistanche mongolica</i> o'simligining poya qismi flavonoidlar tarkibi va miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografik usulda aniqlash.....	198
Sh.Turg'unboyev, H.Toshov, A.Xaitbayev	
Gossipolning benzidin bilan yangi shiff asoslari sintezi	203
X.Trobov, R.Djurayeva, X.Karimov, Z.Islomova	
Kuchli kislotalar eritmalarida polivinilspirit gelining bo'kishi.....	207
M.Axmadaliyev, I.Sharofiddinov	
Metanning piroлизlashdagi chiqindilarini qaytaishlash omillari.....	212
M.Axmadaliyeva, M.Axmadaliyev	
11-rafinatni parafinsizlantirishda erituvchi tarkibining ta'siri.....	217
U.Yusupaliyev, T.Amirov	
Bitum emulsiyasi qo'shilgan sement bilan ishlov berilgan shag'al-qum qorishmalari bilan asoslarni qurish uslublari	222
N.Dexqanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,	
NaX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi	229
I.Asqarov, X.Isaqov, S.Muhammedov	
Furfurolidenkarbamidning mass-spektroskopik va termik tahlili	237
F.Xurramova, S.Zokirov, Sh.Yarmanov, S.Botirov, A.Inxonova	
Tabiiy polimerlarga sun'iy eritmalaridagi Pb () ionlarining sorbsiya kinetikasi	240

BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

I.Zokirov, D.Asqarova, G.Zokirova	
<i>Leptinotarsa decemlineata</i> say, 1824 invaziv turining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalish xususiyatlari	245
N.Abdullayeva, M.Davidov	
Assortimentni kengaytirish va yumshoq pishloq ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari	250
A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Haydarov	
Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash	254
R.Jamolov, O.To'rayev, N.Xoshimova	
Farg'ona viloyatida ona asalarini sun'iy usulda urug'lantirishning uning tuxumdonligiga ta'siri.....	258
G.Yuldashev, D.Darmonov, I.Mamajonov	
Minerallashgan suvlар bilan sug'orishdagi tuproqning tuz balansining o'zgarishi	262

ILMIY AXBOROT

A.Bababekov	
Marosim iqtisodiyoti: nikoh to'yi marosimlari misolida (iqtisodiy antropologik tahlil)	268
S.Ruziyeva	
O'zbekistonda san'at menejmenti: asosiy yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalari	274
O.Abobakirova	
Abdulla Avloniy hikoyatlarining badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati	278
D.Nasriyeva	
Isajon Sulton asarlarida presedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida.....	283
I.Raufov	
O'zbekistonda neft-gaz tizimi istiqbollari	287
N.Jumaniyazova	
O.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarining badiiy tahlili	290
E.Nasrullahov	
Navoiyshunos S.Olimov tadqiqotlarida ulug' shoir ma'rifiy talqinlarining tadqiqi.....	293

O'ZBEKİSTONDA NEFT-GAZ TİZİMİ İSTİQBOLLARI

ПЕРСПЕКТИВЫ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА

PERSPECTIVES OF OIL AND GAS INDUSTRY OF UZBEKISTAN

Raufov Ixtiyor Sulaymonovich¹

¹Raufov Ixtiyor Sulaymonovich

– Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston neft va gaz sanoatining mustaqillik davrida bosib o'tayotgan rivojlanish sari bosqichlari,yutuqlari va muammolari haqida qisqacha izoh berilgan.Shu bilan bir qatorda, sohada qilinishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar,yechilishini kutib turgan ayrim muammolar, shuningdek, bu tizimni iqtisodiyotimizning yetakchi sohasiga aylanishi istiqbollari to'g'risida munozara olib boriladi.

Аннотация

В этой статье пойдет речь об этапах развития нефтегазовой промышленности Узбекистана, а также о проблемах, успехах и достижениях в этом период. Также про неотложные задачи которые стоят перед отраслью,пути и стратегические решения которые помогут в этой сфере стать флагманом всей экономики нашей страны в обозримом будущем.

Abstract

In this article we will talk about the stages of development gaz and oil production of Uzbekistanas well as about problems, successes and achievements in this period. Besides this, about urgent tasks that the industry faces, ways and strategic decisions that will help in this area to become the flagship of the entire of our country in the foreseeable future.

Kalit so'zlar: neft,gaz,kondensat,qayta ishlash,strategiya,reja,byudjet.

Ключевые слова: слова:нефть, газ, конденсат, переработка, стратегия, план, бюджет.

Key words: Oil, gas, condensate, recycling, strategy, plan, budget.

KIRISH. Hozirgi zamonda davlat mustaqilligi va uning dunyo iqtisodiyotida raqobatbardoshligi - uning qay darajada yer osti boyliklaridan unumli foydalana olishiga bog'liq bo'lib qoldi. Oxirgi paytlarda dunyoda ro'y berayotgan voqeа-hodisalarни tahlil qilar ekanmiz,energetika sohasining qay darajada ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qisqasi neft va gaz zaxiralariga ega davlatlar iqtisodiy jihatdan yetakchi bo'lib boryapti. Shu jihatdan o'rinda bizning mamlakatimizda juda qulay imkoniyatlar bor. Yana bir bor ta'kidlash lozimki, - energetika masalasi hozirgi paytda eng dolzarb bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng sanoatning barcha tarmoqlari kabi neft va gaz sanoatini rivojlantirish borasida ham bir qator qonun, qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan 30.06.2017-yildagi Respublika Prezidentining "Neftegaz sohasi boshqaruvi sistemasini takomillashtirish" hamda 04.04.2020 yildagi №ПП-4664 "Neftegaz sohasining moliyaviy barqarorligini yuksaltirish" nomli farmonlarda qilinishi kerak bo'lgan birinchi navbatli chora – tadbirlar ko'rsatilgan. Shu bilan bir qatorda, Andreyev.A.F va Dadajonova.M.SH larning "O'zbekiston neftegaz tizimining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanish istiqbollari" asarida keltirilgan omillar – sohani yanada rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib bermoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Hozirgi zamon keskin raqobat doirasida bizning kompaniyalarimiz uzoqni ko'zlab ish olib borishiga to'g'ri keladigan sharoitda, ko'pgina omillar va muammolarga yangicha qarashni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti talablariga javob berish korxonalardan – boshqaruv tizimini sifat jihatidan yaxshilash, raqobatbardor texnologiyalarga ega bo'lishi, har tomonlama puxta tayorgarlikga ega xodimlarning mavjudligi, ishlab chiqarish va biznes jarayonlarning tashkil etilganligi va shu bilan bir qatorda moliyaviy-investitsion faoliyatning yaxshilanishini talab etadi. Sir emaski biz ko'pchilik paytlarda bu faoliyatga chetdan mutaxassislarini jalb etishga majbur bo'lyapmiz, chunki mahalliy kadrlarimizning ko'pchiligi bunday sharoitlarda hali ishlamagan. Uzbekiston neft gaz tizimi iqtisodiyotimizning eng muhim sohalari qatoriga kiradi. Bu sohaning gullab-yashnashi butun iqtisodiy tizimning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Buning uchun quyidagi savollarga javob berish kerak:

1)O'zbekiston xalq xo'jaligi tizimida neft gaz sistemasining o'rni

2)Korxonalarning boshqa organlar bilan hamjihatligini oshirishning yo'llari

3) Tizimga davlat tomonidan berilgan imtiyozlar

4) Tizimga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hollarning oldini olish

BMT ta'rifida –O'zbekiston rivojlanayotgan davlatlar toifasiga kiradi. Bizning o'ziga xos modelimizning –huquqiy ustqurmasi Konstitutsiyamizdir. Davlat iqtisodida neft va gaz tiziminig o'rni iqtisodga qo'shayotgan hissasidan ma'lum. Unda tabiiy gaz - 84%ni neft va kondensat – 14% ni tashkil etadi. Uning YIM dagi ulushi esa – 18-20% foiz bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Milliy sanoatning raqobatdoshligi, shu bilan bir qatorda, millatning hayot darajasining o'sishi - sanoat tarmoqlarining o'sishi, rivojlanishi va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan holga kelishiga bog'liq. Davlatning bu jarayondagi roli quyidagicha:

Ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini qo'llash, ichki tizim korxonalarini moliyaviy rag'batlantirish, tevarak-atrof va ekologiyaga zararni kamaytirish, soliq sistemasini yangi talablarga moslashtirish, yangi asbob-uskunalar bilan ta'minlash kabilardan iborat. Bundan tashqari boshqaruv sistemasi sifatini yaxshilash, tarmoq ichidagi korxonalarining o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tubdan isloh qilish, iqtisodiy o'sishning yangi yo'llarini topish masalalari dolzarb hisoblanadi. Biznes rejalashtirish strategiyasi, birinchi navbatda, strategik bozor iqtisodi pozitsiyasiga erishishga yo'llangan. Yana shuni e'tirof etish lozimki, mahalliy kadrlarni qaytadan tayyorlash jarayonida, yangi ixtisosliklarni ochish va bu ishga chetdan ustozlarni taklif etib, yoshlarni puxta kasbni egallagan mutaxassis qilib hozirlash uchun, ko'pgina maxsus ixtisosliklar tashkil etildi. Hozirgi kunda bu ishlarning samarasini ko'rib turibmiz.

Shu bilan bir qatorda, tizimga chet el sarmoyalarining kirib kelishiga asosiy sabablardan biri – davlatimiz qonunchiligi tomonidan sarmoyadorlarga yaratilgan bir qancha yengilliklarni ham aytib o'tish joizdir. 2001-20 yillarda Rossiya, Yevropaning bir qator kompaniyalari bizning korxonalar bilan birqalikdagi faoliyatini boshlab yubordi. Bular qatorida – «Lukoyl», ERIELL, EPSILON va NSGD kabi qo'shma korxonalarini aytish mumkin. Jumladan, Buxoro viloyatidagi Qandim gazni qayta ishlash zavodining qurilishi va ishga tushirilishi nafaqat gaz xomashyosini, balki undan ajratib olinadigan oltингugurtni ham qayta ishlash imkonini yaratdi. Shu qatorda, Navoiy viloyatidagi «Navoiy-Azot» korxonasingning Yaponiya va Koreya sarmoyadorlari tomonidan qayta rekonstruksiya qilinishi katta ahamiyat kasb etdi. Qashqadaryo viloyatidagi GTL zavodining qurilishi esa gaz xomashyosidan 20 ga yaqin neft va gaz mahsulotlari olish imkonini yaratdi.

Neft va gaz tizimi samaradorligini oshirish omili- xomashyo qazib olinib to tayyor mahsulot holatiga kelguniga qadar uning tannarxini kamaytirish har bir korxonaning kelajakda yetakchilik qilishi imkonini beradi, bu quyidagi ko'rinishga ega:

Konlarda geologik - razvedka ishlarning olib borilishi;

Xomashyoni qazib olib uni qayta ishlash;

Marketing hamda uni tayyor mahsulot sifatida sotish

Qo'yilgan maqsadlarga biznes-planlarning faqatgina oqilona va samarali amalga oshirilishi yordamida yetishish mumkin. Bunda nazorat sistemasining ichki o'zgarishlar va bozor konyukturasiga qarab ish olib borilishni talab qiladi. Bu o'rinda moliyaviy strategiya muhim rol o'ynaydi. Bu o'z navbatida moliyaviy byudjetning to'g'ri tuzilganligi, uning vaziyatga qarab o'zgartirila olinishi bilan bog'liqidir. Kompaniyaning yaqin kelajakdagi planlari taxminan bir yilga, har bir tizim ichidagi korxonaning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Kompaniyaning to'liq byudjeti nazoratning umumiyl vositasi hisoblanadi. Byudjetning kompaniya strategik rejasi bilan bog'liqligi quyidagicha bo'ladi:

Kompaniya strategiyasi - uning moliyaviy strategiyasi kompaniya byudjeti joriy yil byudjeti - ishlab chiqarish rejasi - sotish rejasi - xarajatlar smetasi.

Neft va gaz tizimining faoliyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalar ustuvor bo'lib hisoblanadi, jumladan:

-Neft va gaz mahsuloti qazib olish miqdorini ichki ehtiyojlarning qondirilishi darajasiga olib chiqish;

-Faqatgina qazib olingen suyuq uglevodorodlar qayta ishlanishini yo'lga qo'yish;

-Neft va kondensat qazib olish va qayta ishlash faqat ichki bozorni qondiribgina qolmasdan, balki chetga eksport qilish uchun imkoniyat yaratish;

-Gaz qazib chiqarib uni qayta ishlab ichki bozor va eksport masalasini qoplash;

Shu bilan bir qatorda, ekologiya masalasiga jiddiy yondashish.

Masalaga ijodiy yondashuv nuqtayi-nazaridan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Neft va gaz tizimining davlat iqtisodiyotidagi roli muhimdir.

Uni yanada rivojlantirish va mukammallashtirish uchun – boshqaruvda zamonaviy usullar va strategik rejalarini qo'llash lozim.

Xomashyoni qazib olish va uni qayta ishlash jarayyonini jadallashtirish sohada mavjud xaratatlar miqdorini kamaytirishga va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda bu sohada ancha ijobjiy o'zgarishlar yuz beryapti. Joriy yilning 15-iyun kunidan GTL zavodida ilk bora sintetik neft ishlab chiqarilishi yo'nga qo'yildi. Bu o'z navbatida kimyo-neft va gaz-neft mahsulotlarini qayta ishlash sohasi rivojlanishida yangi texnologik bosqich hisoblanadi. Buxoro viloyati Olot tumunidagi Tegirmon konidan kuniga 130 ming kub tabiiy gaz va qariyb 1 tonna gaz-kondensati qazib olish mumkin. Shu qatorda, Xoqiqazg'on konining quduqlarida kuniga – 70 ming kub tabiiy gaz va 1 tonnaga yaqin gaz kondensati qazib chiqarish imkonii yaratildi. Zevarda konining 332 qudug'idan esa kuniga 96 ming kub gaz va 1 tonna gaz kondensati qazib olina boshlandi.

"Ozbekneftegaz" tizimidagi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi 361.2 tonna gaz kondensati yetkazib berdi. Muborak boshqarmasi 136.6 tonna, Sho'rtan 54.4 tonna va Gazli zavodi 56.8tonna mahsulot topshirdi. Yana bir muhim masala bu atrof-muhitni saqlash bo'lib hisoblanadi. Bu sohada qilingan ishlar keng ko'lalma ekologik nuqtayi nazardan barcha zamonaviy talablarga javob beradi.

Yana bir e'tiborga molik masala – homiylikdir. Bunga "Humo" sport majmuasi, yoshlari sportiga e'tibor, obodonchilik va mehnat faxriylariga bo'lgan katta e'tiborni misol qilish mumkin.

XULOSA

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan so'ng sohada qilingan ishlar, davlatimiz tomonidan berilayotgan jiddiy e'tibor natijasi o'laroq – hozirgi kunga kelib bizning neft-gaz sanoatimiz butun Markaziy Osiyoda yetakchi o'ringa chiqib oldi. Bunga sabab, sohada dunyo andozalariga mos texnologiyalar, asbob-uskunalar va eng muhimi, sifatli kadrlarning mavjudligi kelajakga umid bilan qarashga imkoniyat beradi. Boshqa davlatlarning bunday muvaffaqiyatlarga erishishiga 40-50 yillar kerak bo'lar edi. Maqsad erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, doimiy ravishda o'z ustida ishlab oldinga harakat qilishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andreyev.A.F , Dadajonova.M.SH. Нефтегазовый комплекс Республики Узбекистан- роль в национальной экономике и перспективы развития М Издательство «Нефть и газ» , 2007, с 120

2. Andreyev.A.F , Dadajonova.M.SH Совершенствование планирования предприятий нефтегазового производства // Актуальные проблемы состояния и развития нефтегазового комплекса России Материалы 6-ой научной технической конференции, РГУ нефти и газа им ИМ Губкина 2005 г с 60-603

3. Andreyev.A.F,Dadajonova.M.SH Совершенствование стратегического планирования развития вертикально-интегрированных нефтегазовых компаний // Актуальные проблемы состояния и развития нефтегазового комплекса России Материалы 7-ой научно-технической конференции РГУ нефти и газа им ИМ Губкина 2007 г с 559-560

4. Andreyev.A.F,Bobojonova.M.SH Особенности повышения качества стратегического управления в национальных нефтегазовых компаниях М Научно-экономический журнал «Проблемы экономики и управлена нефтегазовым комплексом», 2007, № 4, с 4-9

5. Salmanov.F, Zolotov.A. Как выйти из топливного кризиса //Известия. 1992. 23 марта. С.2.

6. Справочник нефтепереработчика / Под ред. Радченко Е.Д. М.: Химия, 1986

7. Suslov.N.I. Макроэкономические проблемы ТЭК // ЭКО. 1994. N3. С. 103-108.

8. Топливно-энергетический комплекс Москва, Менатеп N4-9 1993г

9. Fuks.I, Matishev.B., Bagdasarov.L. Белое и черное // Нефть 1997 . №11, с. 57

URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

2. URL: <http://www.uz24.uz/>

3. URL: ru.sputniknews-uz.com.

4. URL: <http://www.za.uz/ru/politics/obsuzhdeni-effektivnost-i-perspektivny-neftgazovoy-otrasli-25-01-2018>

10. Xashimova.N.A. Определение особенностей инновационного развития нефтегазовой отрасли Узбекистана. Материалы республиканской научно-практической Конференции. Ташкент: Филиал РГУ нефти и газа (НИУ) имени И. М. Губкина в г. Ташкенте, 2016. С.272-273